



## TERGOV VA BOSHQA PROTSESSUAL HARAKATLARNI O‘TKAZISHDA SHAXSLARNING XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH AMALIYOTI

**Ashurov Nodir Nayimovich**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Ilmiy mutaxassisligi: 12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika,  
tezkor-qidiruv huquq va sud ekspertizasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15582378>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2025 yil

Ma’qullandi: 28-May 2025 yil

Nashr qilindi: 31-May 2025 yil

### KEY WORDS

*xavfsizlik, huquqiy xavfsizlik,  
shaxsiy daxlsizlik, gumon  
qilinuvchi, ayblanuvchi,  
sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh,  
boshqa shaxslar, dalillar.*

### ABSTRACT

*Maqolada jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlash masalalari atroflicha tahlil qilingan. Muallif maqolada xalqaro huquqiy hujjatlar, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va qonunosti hujjatlarida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilarining xavfsizligi masalalarini qiyosiy-huquqiy tahlil qilgan holda o‘rgangan. Maqolada muallif tomonidan jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta‘minlashni takomillashtirish, qonunchilikda jinoyat protsessi ishtirokchisi bo‘lgan ayrim shaxslarning xavfsizligini ta‘minlash nazarda tutilmaganligi ilmiy tahlil qilingan va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan*

Jinoyat protsessida xavfsizlikni ta‘minlashning protsessual asoslari – bu jinoyat protsessi sohasidagi obyektlarning xavfsizlik holatini tartibga soluvchi jinoyat-protsessual qonun hujjatlarining qoidalaridir. Ularning markazida xavfsizlik choralari qo‘llash to‘g‘risidagi qoidalar turadi desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Jinoyat-protsessual qonunchiligida nazarda tutilgan xavfsizlik choralari va ularni bevosita qo‘llash faoliyati jinoyat protsessida xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy usullaridan biri hisoblanadi. Bu choralar huquqiy himoya va huquqiy muhofaza elementlarini o‘z ichiga oladi.

V.V.Voynikovning fikricha, “jinoyat protsessida xavfsizlik choralari deganda vakolatli shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan va jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligiga tahdidlarning oldini olishga yoki ularni bostirish va buzilgan xavfsizlik holatini tiklashga qaratilgan qonunga asoslangan harakatlar majmui yoki tizimi tushuniladi” .

Fikrimizcha, jinoyat protsessidagi xavfsizlik choralari – bu jinoyat-protsessual qonun hujjatlarida belgilangan, vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan, jinoyat protsessining barcha bosqichlarida xavfsizlik obyektlarini turli tahdidlardan himoya qilish va saqlashga qaratilgan maxsus usullar tizimidir.

Xavfsizlik choralari tizimi – bu o‘zaro uzviy bog‘liq elementlardan tashkil topgan, yaxlit maqsadga yo‘naltirilgan xavfsizlik chora-tadbirlarining majmuasidir.

Jinoyat-protsessida xavfsizlik obyektlarini muhofaza qilish holatini ta‘minlovchi chora-tadbirlar protsessual adabiyotlarda turli asoslarga ko‘ra tasniflanadi:

1) huquq sohasiga qarab: jinoyat protsessi; jinoyat huquqi; ma‘muriy huquq; jinoyat

ijroiya huquqi;

2) qo'llash bosqichiga qarab: sudgacha bo'lgan bosqichlarda qo'llaniladi (tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlari); sud bosqichida (ishni sud muhokamasiga tayinlashda; sud muhokamasida; sud muhokamasini to'xtatishda, shuningdek, hukmni ijro etish paytida) qo'llaniladi;

3) qo'llaniladigan shaxslarga qarab: jinoyat protsessi ishtirokchilariga nisbatan qo'llaniladi; muayyan protsessual maqomga ega bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi;

4) xavfsizlik choralari qo'llash to'g'risida qaror qabul qilish vakolatiga qarab: tergovga qadar tekshiruv organi; surishtiruvchi; tergovchi; surishtiruv organi rahbari; tergov organi rahbari; prokuror; sud (sudya);

5) xavfsizlik choralari amalga oshiruvchi organga qarab: ichki ishlar organlari; davlat xavfsizlik xizmati;

6) qo'llash muddati bo'yicha: vaqtinchalik (ularni qo'llash vaqt oralig'i aniq belgilanganda); doimiy amalga oshirishning (muayyan muddati belgilanmagan);

7) tarkibning manbasiga qarab: himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash; shaxsni, uy-joyini va boshqa mol-mulkni qo'riqlash; himoya qilinuvchi shaxsga maxsus individual himoya vositalarini va texnik vositalarni berish; vaqtinchalik xavfsiz joyga joylashtirish; boshqa yashash joyga ko'chirish, ish (xizmat) yoki o'qish joyini o'zgartirish; hujjatlarni almashtirish; himoya qilinuvchi shaxs to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanilishini cheklash; qamoqda yoki jazoni o'tash joylarida saqlanayotgan himoya qilinuvchi shaxsga nisbatan qo'shimcha xavfsizlik choralari ta'minlash.

Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashning huquqiy tabiati hamda O'zbekiston Respublikasining "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida mavjud bo'lgan davlat muhofazasi choralari farq qiladi. Biroq, qo'llanilishining asoslari va sabablari o'xshashliklarga ega. Chunki ushbu choralari qonunda yagona maqsad – obyektlarning ma'lum darajadagi jinoyat-protsessual xavfsizligini ta'minlash va saqlashdan iborat.

Protsessual adabiyotlarda quyidagilar jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligi va davlat himoyasini ta'minlash uchun asos sifatida ajralib turadi: rasmiy va faktik ; faktik va protsessual ; huquqiy va faktik ;

D.S.Sokolovning fikriga ko'ra, "xavfsizlik choralari va davlat muhofazasini qo'llash uchun ikkita asos zarur: faktik va huquqiy (rasmiy va huquqiy). Muallif, shuningdek, bu asoslar birgalikda bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi".

Xorijiy davlatlarda inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi tomonidan jinoyat sudlov ishlari sohasidagi xalqaro-huquqiy standartlarga zid emas deb e'tirof etilgan quyidagi xavfsizlik choralari keng qo'llaniladi:

1) himoyaga olingan fuqaroning ko'rsatuvlarini videoyozuvga yozib olish va uni sud muhokamasi vaqtida himoyaga olingan shaxsning ishtirokisiz namoyish etish;

2) dastlabki tergov tamom bo'lganidan keyin ayblanuvchi va uning himoyachisiga tanishib chiqish uchun beriladigan jinoyat ishi hujjatlarining hajmini cheklash;

3) sud zalida hozir bo'lmagan shaxslarni so'roq qilishda to'g'ridan-to'g'ri namoyish etiladigan videoko'rsatuvlardan foydalanish;

4) sudda jabrlanuvchi va guvohlarning o'rniga xizmat faoliyati davomida jabrlanuvchi va

guvohdan jinoyat ishining holatlarini bilib olgan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarini so'roq qilish;

5) himoyachi va qamoqda saqlanayotgan shaxsning uchrashish huquqini vaqtincha cheklash .

AQShning 1970-yilda qabul qilingan «Jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida»gi Qonuniga ko'ra, sud tomonidan davlat foydasini ko'zlab ishda qatnashayotgan protsess ishtirokchilarga ma'lum shartlar asosida «immunitet» huquqi beriladi. Ushbu qonun orqali jahonda ilk bor sudda ashaddiy jinoyatlarni fosh etishga ko'maklashuvchi shaxslar xavfsizligini ta'minlash borasida davlat tomonidan moliyalashtiriladigan dastur ishga tushirilgan.

1982-yil 12-oktabrda AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan «Jinoyatdan jabrlanganlar va guvohlarni himoya qilish to'g'risida»gi Qonunda jinoiy adliyaning jabrlanganlar va guvohlarni himoya qilmasdan faoliyat yurita olmasligi nazarda tutilgan .

Shuningdek, Kongress tomonidan 1990-yilda qabul qilingan «Jinoyatdan jabr ko'rganlarning huquqlari va restitutsiya to'g'risida»gi Federal Qonunga asosan, "Adliya vaziri tomonidan jinoyatdan jabrlanganlarning xavfsizligini ta'minlash dasturi bajarilishi ustidan nazorat olib boriladi" . Qonunga ko'ra, ishtirokchilarga nisbatan shaxsiy qo'riqchiga ega bo'lish, ish va istiqomat joyini, ism-sharifini o'zgartirish, yangi hujjatlar bilan ta'minlash, yangi ish topishda yordam berish, zarur yashash minimumi ajratish kabi xavfsizlik choralari belgilanishi mumkin.

Germaniyada 1986-yil 10-dekabrda qabul qilingan «Jabrlanuvchilarning himoyasi to'g'risida»gi, 1990-yilda qabul qilingan «Guvoh himoyasi to'g'risida»gi Qonunlar jinoyat sudov ishlarini yuritishda jinoyatdan jabr ko'rganlar va ularning oilasi xavfsizligini ta'minlash borasidagi ilk qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu hujjatlarda jinoyat sudlov ishlariga ko'maklashuvchi shaxslarning xavfsizligini ta'minlaydigan organlarning vazifalari aniq belgilab qo'yilgan. 1993-yildagi «Asosiy guvoh to'g'risida», 1998-yildagi «Xavf tahdid solayotgan guvohlar himoya bilan ta'minlash masalalarini tartibga solish to'g'risida»gi qonunlarda "guvohlarni himoya qilishga oid qo'shimcha choralar (ba'zi toifadagi guvohlarni so'roq qilishning «imtiyozli» tartibi va boshqa) belgilangan" .

Germaniya federativ Respublikasining 1994-yildagi «Jinoyatchilikka qarshi kurash to'g'risida»gi Qonunida "guvoh va jabrlanuvchilarning anonimligiga katta ahamiyat berilgan" . Bundan tashqari, voyaga yetmagan jabrlanuvchilarga nisbatan "Politsiyaning uzoq muddatli himoyasi" va "Voyaga yetmaganning qayerda ekanligini sir saqlash" tarzidagi xavfsizlik choralari qo'llanilgan.

Fransiyada jabrlanuvchilar huquqlarini himoya qilish va ularga jinoyat oqibatida yetkazilgan zararni qoplash masalalarini tartibga soluvchi qonunlarning butun bir tizimi amal qiladi. Xususan, 1977-yil 3-yanvardagi 77-5-sonli «Jinoyatdan jabrlanganing badaniga shikast yetkazish oqibatidagi zararni qoplash to'g'risida», 1981-yil 2-fevraldagi 81-82-sonli «Shaxs erkinligi himoyasi va xavfsizlikni kuchaytirish to'g'risida», 1983-yil 8-iyundagi 83-608-sonli «Jinoyatdan jabrlanganlar himoyasini kuchaytirish to'g'risida»gi qonunlar orqali "jabrlanuvchilarning yuridik, psixologik, ijtimoiy yordam uchun kompensatsiya olish huquqi kafolatlanadi" .

Italiyada 1992-yildan buyon 306-sonli «Antimafiya» Dekreti amal qiladi. Unga ko'ra, guvohni so'roq qilish videoyozuvlar yordamida namoyish etiladi. Mazkur Dekretga asosan

odil sudlovga ko'maklashishni istagan Italiya mafiyasi Koza nostra sobiq a'zolarining xavfsizligini ta'minlashni nazarda tutilgan. Guvohning qarindoshlari politsiya tomonidan qo'riqlanadi. Mazkur dastur Koza nostraga qaqshatqich zarba bergan, sobiq mafiya a'zolarining ko'rsatuvlari asosida ko'plab mafia a'zolari qamoqqa olingan yoki mamlakatdan qochib ketgan.

Buyuk Britaniyada jinoyatdan jabr ko'rganlarga yordam ko'rsatish davlat jinoiy sudlov ishlarini yuritish siyosatining ajralmas qismi hisoblannadi. Bu sohadagi eng yirik hujjat «Jabrlanganlar huquqlari xartiyasi» deb nomlanadi. Protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash oddiy politsiyaning vazifalari qatoriga kirib, bu sohada faoliyat yurituvchi alohida muassasalar mavjud emas.

2019-yilda Yevropa Ittifoqida «Ittifoq qonunlarining buzilishi haqida xabar beruvchi shaxslarning himoyasi to'g'risida»gi Direktiva qabul qilingan. Unda barcha ittifoqqa a'zo davlatlar 2021-yil 17-dekabrgacha unda belgilangan asosiy qoidalarni milliy qonunchiligiga kiritishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan. AQShda esa, Federal qonun bilan «Qui tam» protsedurasi belgilangan. Unga ko'ra pora haqida xabar bergan shaxs, poraning 15-25 foizi miqdorida rag'batlantiriladi. Ularning himoyasi uchun «Milliy xabarchilar markazi» faoliyat yuritadi. Bu bo'yicha har yili o'zining hisobotini berib boradi. Shuningdek, boshqa turdagi jinoyatlar uchun mukofotning qiymati jinoyatning og'irlik darajasidan kelib chiqadi va o'rtacha, bir ming AQSh dollari atrofida bo'ladi. E'tiborli jihati shundaki, hozirga qadar xabarchilarga 65 million dollar pul mukofoti to'lab berilgan. Yurtimizda ham mazkur sohaga doir normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish borasida qator ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, huquqni qo'llash amaliyotida hali-hanuz o'zining ijobiy natijasini bermayapti. Xususan, 2021-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tergov organlari bilan hamkorlik qilganlarni moddiy rag'batlantirish holati atigi 0,47 foizni tashkil etgan.

Jinoyat-protsessual kodeksning 270-moddasi birinchi qismiga binoan, "vakolatli davlat organlari va mansabdor shaxslar agar jinoyat protsessi ishtirokchilariga o'ldirish, kuch ishlatish, mol-mulkini yo'q qilib tashlash yoxud mol-mulkiga shikast yetkazish bilan yoki o'zga g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar bilan tahdid qilinayotir deyish uchun yetarli ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda bu shaxslarning hayoti, salomatligi, sha'ni, qadr-qimmatini va mol-mulkini muhofaza qilish, shuningdek aybdorlarni aniqlash hamda ularni javobgarlikka tortish choralarini ko'rishlari shart".

"Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 16-moddasiga muvofiq, "xavfsizlik choralarini qo'llash uchun asoslar himoya qilishni ta'minlash to'g'risida qaror qabul qiluvchi organ tomonidan aniqlangan, himoya qilinuvchi shaxsni jinoyat protsessida ishtirok etganligi munosabati bilan o'ldirish, unga zo'rlik ishlatish, uning mol-mulkini yo'q qilish yoki mol-mulkiga shikast yetkazishning aniq tahdidi mavjudligi haqidagi ma'lumotlar hisoblanadi.

Yuqoridagi huquqiy normalarning ma'nosini chuqur tahlili bizga, qanday ma'lumotlar yetarli deb hisoblanadi, tahdidlarni aniq va haqiqiy qaysi me'zonlar asosida baholanadi, yetarli ma'lumotlarning mavjudligini aniqlash jinoyat ishini yuritadigan davlat organlari va mansabdor shaxslar uchun huquqmi yoki majburiyatmi degan savollarni tug'dirmoqda.

Fikrimizcha, "Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 16-moddasining so'zma-so'z talqini protsessual xavfsizlik choralarini qo'llash uchun asos sifatida aniqlashga imkon beradi.

Boshqacha qilib aytganda, xavfsizlik choralari faqat tahdid shaklida xavfli ta'sir ko'rsatgan taqdirdagina qo'llanilishi mumkin.

Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, protsessual xavfsizlik choralari qo'llash asoslarini belgilaydigan ushbu huquqiy qoida quyidagi kamchiliklarga ega:

birinchidan, bu tahdid amalda sodir bo'lmagan, lekin qotillik, tan jarohati yetkazish, mulkini qasddan nobud qilish yoki shikast yetkazish va boshqa harakatlarni amalga oshirish bilan qo'rqitish holatlarida protsessual xavfsizlik choralari qo'llashga imkon bermaydi. Masalan, jinoyat ishi bo'yicha tergov paytida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi tomonidan "A" ismli guvoh o'ldiriladi. Biroq, bu holat, ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsdan himoya qilish maqsadida "B" ismli guvoh uchun protsessual xavfsizlik choralari qo'llashga asos bo'la olmaydi. Chunki unga nisbatan hech qanday tahdid qilinmagan.

ikkinchidan, kelajakda xavfli ta'sirlarni sodir etish potensialini ko'rsatadigan faktik ma'lumotlar mavjud bo'lganda, ya'ni profilaktika maqsadida protsessual xavfsizlik choralari qo'llashga imkon bermaydi. Masalan, tahdid qilinmasa-da, gumon qilinuvchi (ayblanuvchi, sudlanuvchi)dan jinoyat protsessi ishtirokchilari qo'rqishadi. Chunki bu shaxs uyushgan guruh a'zosi, jinoyat sodir etishga moyil shaxs yoki jinoyat olamidagi obro'li shaxs bo'lishi mumkin.

Profilaktika maqsadida protsessual xavfsizlik choralari qo'llash zarurligini asoslash uchun qo'shimcha dalillar taqdim etilishi mumkin. Demak, jinoyat protsessida guvohning hayoti, sog'lig'i, mol-mulkiga nisbatan jinoiy tajovuz etish bilan tahdid qilinsa, uning ruhiy holatiga ta'sir etgan bo'ladi. Ushbu holatda ta'sir orqali maqsadga erishish mumkin va natijada guvoh ayblovni tasdiqlovchi ko'rsatuvlarni bermaydi yoki jinoyat protsessida ishtirok etishdan bosh tortadi. Bundan tashqari, guvohga qarshi qilingan tahdid, xavfli ta'sir ko'rsatgan manfaatdor shaxslarga ma'lum bo'lib, ushbu guvohga nisbatan muayyan xavfsizlik choralari qo'llash natija va samara bermaydi. Bunday holatda, Jinoyat-protsessual kodeksining 380-moddasi uchinchi qismiga muvofiq taxallusdan foydalanish lozim bo'ladi.

Ayrim tadqiqotchilarning fikricha, "har yili tahminan 10 milliondan ortiq shaxs jinoyat ishlarini yuritishga guvoh sifatida jalb qilinib, tahminan ikki yarim million kishi jinoyatchilarning bosimi tufayli ishda guvohlik berishdan bosh tortar ekan".

Jinoyat protsessi ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashda vujudga keladigan yuqoridagi xavflarni bartaraf etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

V.D.Larichyev va P.A.Sustretovlarning fikricha, "jinoyat ishini yurituvchi shaxslarga yordam berayotgan shaxs bilan xolislar, mutaxassis, ekspert va boshqalar ishtirokida o'tkaziladigan tergov harakatlarida ishtirokchilar hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa hodimlar bilan maqsadga muvofiq bo'lmagan uchrashuvlarni chegaralash lozim. Taxallus ostida guvoh ishtirok etayotgan jinoyat ishini bir tergovchidan ikkinchi tergovchiga o'tkazishni ham cheklash lozim. Negaki, bunday holatda taxallus ostida ishtirok etayotgan ko'pgina guvohlar o'zlari to'g'risidagi ma'lumotlarning oshkor bo'lish doirasining kengayshidan xavotirlarning kuchayishi tufayli, jinoyat ishini yuritishda ishtirok etishni istamaydilar".

Fikrimizcha, ushbu fikrlar har jihatdan asoslidir. Chunki, ishtirokchilar doirasining kengayishi protsess ishtirokchilarining xavfsizligiga putur yetkazishi mumkin.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning samaradorligini oshirishda ham

jabrlanuvchilar va guvohlar xavfsizligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shu o'rinda I.Ismailovning fikrlari asosli ko'rinadi. Uning fikricha, "uyushgan jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilayotgan bosqinchilikning 70-80 foizi, talonchilikning 65-70 foizi, o'g'rilikning 40-50 foizi, tovlamachilikning 30-40 foizi, firibgarlikning 20- 25 foizi, o'zlashtirish va rastrata qilishning 5-10 foizi yuzasidan jabrlanuvchi va guvohlarning xavfsizligi qonun yo'li bilan yetarlicha muhofaza qilinmaganligi mazkur jinoyatlarning fosh etilmasligining asosiy omillaridan biridir".

Ushbu fikrlarni to'liq qo'llab quvvatlaymiz. Mazkur jinoyatlarning bevosita guvohi bo'lgan jabrlanuvchi va guvohlarning xavfsizligi yetarli darajada himoya qilinmaganligi sababli ushbu jinoyatlarning fosh etilishi boshqa jinoyatlarga nisbatan past darajada qolmoqda.

Shu sababli ham surishtiruv va dastlabki tergov organlari hamda sudlar jabrlanuvchilar, guvohlar va protsessning boshqa ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash, ularga nisbatan turli xil ta'sir o'tkazilishini oldini olish masalasiga jiddiy e'tibor qaratishlari zarur.

Fikrimizcha, bugungi kunda protsess ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash zamon talabiga javob bermaydi va ushbu qoidalarni yanada takomillashtirish zarur. Jabrlanuvchi va guvohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida huquqni qo'llash amaliyotida audio va video texnikalardan keng foydalanish lozim.

B.I.Ismoilovning fikricha, "xorijiy, ayniqsa rivojlangan g'arb mamlakatlari jinoyat protsessida jabrlanuvchilar va guvohlar xavfsizligini ta'minlashga oid bir qancha huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu mexanizmlardan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda samarali tarzda foydalanilmoqda".

Tadqiqotimiz davomida, ayrim MDH hamda boshqa rivojlangan mamlakatlarida ham ushbu masalaga jiddiy yondoshilayotganligini guvohi bo'ldik. Xususan, Rossiya Federatsiyasida jabrlanuvchilar, guvohlar va jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovning boshqa ishtirokchilarini davlat tomonidan himoya qilishga oid qonun ning qabul qilingan. Qozog'iston Respublikasida "Guvohlarni himoya qilish Dasturi" qabul qilinganligi tahsinga sazovordir.

Fikrimizcha, Respublikamizda ham jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini oshirish maqsadida jabrlanuvchilar va guvohlar xavfsizligini ta'minlashga oid maxsus qonun yoki dasturning ishlab chiqilishi zarur.

Bundan tashqari, ayni mazkur masala yuzasidan AQSh tajribasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. AQShda guvohlar xavfsizligini ta'minlashning samarali tizimi ishlab chiqilgan. Uning huquqiy asosini 1984-yil 12-oktabrda qabul qilingan "Guvohlar xavfsizligi institutini isloh qilish to'g'risidagi qonun" (Witness Security Reform Act) tashkil etadi. Mazkur qonunga muvofiq, guvohlar xavfsizligini ta'minlashning quyidagi choralari qo'llanilishi mumkin: shaxsiy hujjatlarni almashtirish, yashash joyini o'zgartirish, boshqa joyga ko'chishini ta'minlash, yangi turar joyga moslashish uchun pul ajratish, ishga joylashtirishda yordam berish, guvohlik bergan shaxsga oid ma'lumotlarni maxfiylashtirish va boshqalar. Bunda guvoh bilan bitim imzolanadi va bu bitimda guvohning jinoyatni ochish va aybdorlarni fosh qilishga oid ma'lumotlarni berish majburiyati ko'rsatiladi. Guvoh tomonidan ushbu majburiyatlarning bajarilmasligi xavfsizlik choralari bekor bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Kanadada ham guvohlarni himoya qilish dasturi to'g'risidagi qonun mavjud bo'lib, unda guvohlarni himoya qilishning: yashash joyini o'zgartirish, vaqtinchalik xavfsiz joyga

joylashtirish, shaxsiy hujjatlarni almashtirish, maslahat berish, pul bilan ta'minlash kabi choralar ko'zda tutilgan.

Fransiyada esa, guvohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida surishtiruv bosqichida "anonim ko'rsatuvlar"dan foydalanish tartibi ham qo'llaniladi. Bunda, ko'rsatuv bergan shaxsga oid ma'lumotlar so'roq bayonnomasida ko'rsatilmaydi va unda ushbu ko'rsatuvlar "ishonchga sazovor, ammo o'zining kimligini maxfiy saqlashni xohlagan shaxs" tomonidan olinganligi haqida maxsus belgi qo'yiladi.

Fikrimizcha, bunday normalarni Respublikamiz huquqni qo'llash amaliyotiga to'g'ridan-to'g'ri qo'llab bo'lmaydi. Shu sababli ham protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga oid choralarni: 1) protsessual choralar; 2) davlat tomonidan amalga oshiriladigan himoya choralari bo'lish zarur bo'ladi.

Protsessual choralarga, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan ya'ni, o'z holatiga ko'ra protsessual harakatlar hisoblangan choralar (telefon orqali so'zlashuvlarni eshitish, tanib olish uchun ko'rsatishda maxsus tergov xonalaridan foydalanish, ishni yopiq sud majlisida ko'rish, dastlabki tergov hujjatlari bilan tanishish) kiradi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan himoya choralari esa jabrlanuvchilar, guvohlar, xolilar, ularning yaqinlarini qo'riqlash, ularga oid ma'lumotlarning sir saqlanishini ta'minlash, jinoiy guruhlar, uyushmalarga qarshi ko'rsatuv bergan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilish kabi choralarni kiritish mumkin.

Hozirda aksariyat davlatlarda guvohlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida sudning o'zi qatnashmasdan audio va video texnikalardan foydalanib (anonim guvohlik) ko'rsatuvlar olish masalasini kengroq joriy qilish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Ammo, guvohning bevosita sudga qatnashmasligi va sudlanuvchi, himoyachilarning uning kimligini bilmasligi va unga savollar bera olmasligi halqaro huquq normalariga, xususan "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktga to'g'ri kelishi yoki kelmasligi haqida turli qarashlar mavjud.

Xalqaro sud amaliyotida ham bu masala yuzasidan yagona amaliyot mavjud emas. Xususan, Yevropa inson huquqlari bo'yicha sudning 1989-yil 20-noyabrdagi qarorida milliy sudning ayblanuvchi K.ga nisbatan ayblov hukmi sudga so'roq qilinmasdan ko'rsatuvlari tanishtirilgan ikkita "anonim" guvoh ko'rsatuvlariga asoslanganligi hamda sudyalarning guvohlarni o'z ko'zlari bilan ko'rmaganligi va ularning shaxsi haqida tasavvurga ega bo'la olmaganliklari sababli, ayblanuvchining huquqi buzilgan deb topgan.

Boshqa bir ish bo'yicha esa, Yevropa inson huquqlari bo'yicha sudi guvohlarning bevosita sudga so'roq qilinishi shart emasligini ko'rsatib, "ayblanuvchi va himoyachi tomonidan savollar bevosita sudga so'roq qilish yo'li bilan berilishi shart emas. Audio yoki video yozuvlarni namoyish qilish yoxud so'roq bayonnomasini o'qib eshittirish guvohning ko'rsatuvlarini rad qilish va uning to'g'riligini gumon ostiga qo'yish uchun yetarli" deb hisoblagan.

Nazarimizda, sudga taraflar manfaatlar orasidagi tenglikni ta'minlash maqsadida "anonim guvoh"larning so'roq bayonnomasini o'qib eshittirish bilan cheklanmasdan, ularni sudga texnik vositalardan foydalangan holda so'roq qilish masalasiga ko'proq e'tibor qaratilishi kerak.

L.Brusninin esa "savolga javob so'roq qilinuvchining shaxsi ma'lum bo'lishiga olib

keladigan bo'lsa, uning ko'rsatuvi to'liq yoki qisman tanishtirilmaydi, videotranslyatsiyadan foydalanib so'roq qilishda so'roq qilinayotganning shaxsiga oid savollar rad qilinishi kerak deb hisoblaydi.

Fikrimizcha, Yevropa inson huquqlari bo'yicha sudining "anonim guvohlik"ka doir qarorlarini to'g'ridan-to'g'ri bizning qonunni qo'llash amaliyotimizda qo'llab bo'lmaydi. Biroq, undagi ijobiy tajribalar o'rganilib, mamlakatimiz Oliy sudi tomonidan guvohlarni protsessual himoya qilish choralari qo'llashga doir tushuntirishlar berilishi mumkin.

Yolg'on guvohlik berishning asosiy sabablariga protsess ishtirokchilari o'rtasidagi qarindoshlik yoki boshqa yaqin munosabatlar, ish yakunidan manfaatdorlik, manfaatdor shaxs tomonidan ta'sir ko'rsatilishi ehtimolidan qo'rqish, fuqarolarning huquqni muhofaza qilish organlariga nisbatan ishonchsizligi, protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan protsessual normalarga amaliyotda e'tibor berilmayotganligi kabilar kiradi.

Yolg'on guvohlik uchun javobgarlikni qo'llashda guvohning immunitetiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Chunki, "shaxsning o'ziga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi" to'g'risidagi qoidani amalga oshirmasdan turib jinoyat protsessida fuqarolarning himoyalani sh huquqiga egaligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy prinsipni ro'yobga chiqarish ham mumkin emas.

Guvoh va jabrlanuvchilarni himoya qilishning huquqiy tizimi yaratilishi zarur. Bu guvohlarga ko'rsatuv berilishidan manfaatdor bo'lgan shaxslar tomonidan tazyiq o'tkazilishining oldini olishda muhim ahamiyatga egadir.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlashga oid choralarni:

a) ijtimoiy-iqtisodiy (biografik ma'lumotlar, turar-joy va ish joyini, kasbini o'zgartirish imkoniyatini yaratish, himoya qilinayotgan shaxs halok bo'lgan taqdirda uning oila a'zolarini moddiy ta'minlash va boshqa);

b) huquqiy, o'z navbatida ushbu choralari: jinoyat-huquqiy (himoya qilinayotgan shaxslarning hayoti, sog'ligi yoki mulkiga tajovuz qilganlik uchun javobgarlik belgilanishi) va jinoyat-protsessual (dalillar to'plash, protsess ishtirokchilari xavfsizligini ta'minlash tartibini takomillashtirish) choralarga bo'linadi;

v) jismoniy (shaxsni qo'riqlash, turar-joy va xizmat binolarini muhofaza qilish va boshqa) choralarga bo'lish mumkin.

Bugungi kunda aksariyat davlatlarda guvohlarning xavfsizligini ta'minlash maqsadida, sudda uning o'zi qatnashmasdan audio va video texnikalardan foydalanib ko'rsatuvlar olish amaliyoti keng joriy etilmoqda. Bunday usullardan respublikamiz huquqni qo'llash amaliyotida foydalanish ijobiy natija beradi.

Guvohlik o'z mazmuniga ko'ra, ekspert xulosasi va tarjimadan farq qiladi, shuningdek, turli usullardan foydalanib yolg'on guvohlik berishga majbur qilish obyektiv tomoniga ko'ra boshqa jinoyat hisoblanadi. Shu sababli ushbu qilmishlar uchun javobgarlikni alohida moddalarda belgilash lozim.

L.V.Brusnitsin ta'kidlaganidek, "guvohlarning xavfsizligini ta'minlashning protsessual asoslari masalasi asosan guvohning shaxsiga oid ma'lumotlarni jinoyat-sudlov ishlarini yuritishda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tushunchasi bilan bog'liq. Xavfsizlikni ta'minlashning protsessual asoslari qatoriga protsess ishtirokchisining shaxsiy va mulkiy xavfsizligini hamda uning yaqin qarindoshlarini kiritish mumkin".

Ayrim protsessualist olimlarning ta'kidlashlaricha, "aksincha jinoyat hodisasi haqidagi xabarni bergan shaxsning xavfsizligini ta'minlash maqsadida uning shaxsiga taalluqli ma'lumotlarni yashirish, shuningdek jinoyat ishini qo'zg'atish qarorida jinoyat haqida xabar bergan shaxsning ma'lumotlari o'rniga "taxallus"dan foydalanish mumkin emas. Xabar bergan shaxsning xavfsizligini jinoyat protsessining keyingi – dastlabki tergov bosqichida himoya qilish o'rinlidir .

Mazkur qarashning tarafdorlari o'z fikrlarini uch jihatdan asoslaydilar:

birinchidan, mazkur bosqichda asosan jinoyat ishini qo'zg'atish yoki uni rad qilish masalasi hal qilinadi Shu bois jinoyat haqida xabar bergan shaxsning huquqiy maqomi ham aniq holatda emas;

ikkinchidan, jinoyat ishini qo'zg'atish qarorida real shaxs emas, balki taxallusga ixtibos qilish himoya tarafida ko'plab e'tirozlarni, ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin;

uchinchidan, jinoyat ishini yurituvchi vakolatli shaxslarning zimmasida bo'lgan isbotlash vazifasini amalga oshirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xabar bergan shaxsning (arizachining), agar uning shaxsiy ma'lumotlarini sir saqlash zaruriyati vujudga kelganda, qanday protsessual qoida yoki xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi ishga tushishi lozimligi bilan bog'liq masalani hal etish lozim. Basharti guvohning yoki jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlash zarur bo'lganda tergovga qadar tekshiruvni amalga oshirayotgan shaxs muayyan protsessual qarorni, masalan qarorni qabul qilishi lozim bo'lsa, unda uni amalga oshiruvchi protsessual subyektga jinoyat ishini qo'zg'atish yoki qo'zg'atishni rad qilish to'g'risidagi qarordan farqli ravishda, shaxsning xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rish to'g'risida qaror qabul qilish vakolatini ham berish zarur bo'ladi.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. Войников В.В. Указ. соч. С.16; Епихин А.Ю., Мишин А.В. Указ. соч. С. 55; Новикова М.В. Указ. соч. С. 55.  
. Епихин А.Ю., Мишин А.В. Ўша манба. Б-56.
3. Зайцев О.А. Государственная защита участников уголовного процесса. М., 2002. С.
4. Епихин А.Ю. Концепция обеспечения безопасности личности в сфере уголовного судопроизводства: дис. ... д-ра юрид. наук. Сыктывкар, 2004. С. 122.
5. Авдеев М.А. Ўша манба Б-21.
6. Соколов Д.С. Ўша манба Б-81, 125; Исаев А.Э. Ўша манба Б-181.
7. Чекулаев Д. Применение мер безопасности в отношении потерпевших и других участников процесса. // Законность. -2005. -№5. –С.31.
8. Фитцджеральд Д. Программа обеспечения безопасности свидетелей. // Правоохранительная деятельность в США. –М.: 1998. –С.174-177.
9. Воробьев И.А. Защита свидетелей как одно из ключевых условий эффективной борьбы с организованной преступностью. // Журнал российского права. -1999. -№2. – С.134.
10. Новикова М.Н. Обеспечение безопасности участников уголовного судопроизводства как гарантия осуществления правосудия в современных условиях: Автореф. дисс.... канд. юрид. наук. –Екатеринбург: Уральский юридический институт МВД России, 2006. –С.23.

11. Брусницын Л. Как обезопасить лиц, содействующих уголовному правосудию. // Российская юстиция. -1996. -№9. –С.48.
12. Jo‘rabojev A. Voyaga yetmagan jabrlanuvchilarning shaxsiy xavfsizligini ta‘minlashga oid xorij qonunchiligi tahlili.// Falsafa va huquq. -2006. -№4. –S.45.
13. Меньших А.А. О возмещении ущерба жертвам преступлений во Франции. // Журнал российского права. -1999. -№9. –С.48.
14. Вавилова Л.В. Организационно-правовые проблемы жертв преступлений (по материалам зарубежной практики): Дисс... канд. юрид., наук. –М.: 1995. –С.105-139.
15. O‘zbekiston Respublikasi JPK 270-moddasi. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 07.01.2025-yil
16. O‘zbekiston Respublikasining “Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to‘g‘risida”gi 2019-yil 14-yanvardagi O‘RQ-515-son Qonuni.
17. O‘zbekiston Respublikasi JPK 380-moddasi. <https://lex.uz/acts/111460>. Murojaat qilingan sana: 07.01.2025-yil
18. Удовыдченко И. В. Актуальные проблемы использования псевдонимов в уголовном процессе //Пробелы в российском законодательстве. №3, 2009. -С.145.
19. Ларичев В. Д., Сустретов П. А. Проблемы участия лиц, оказывающих содействие органам внутренних дел на конфиденциальной основе, в уголовном судопроизводстве. // Общество и право - 2013 - № 1 (43). –С. 193.
20. Исмаилов И. Жиноятчиликда уюшганлик: назария ва амалиёт муаммолари. Т. 2005. 140-б. 114
21. Исмаилов Б.И. Теоретические аспекты совершенствования законодательных основ защите потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства //
22. Федеральный закон от 20 августа 2004 г. «О государственной защите потерпевших, свидетелей и иных участников уголовного судопроизводства» // СЗ РФ. 2004. № 34 Ст. 3534
23. Казахстана // Российский следователь. № 10. 2006 С 49-50.; Зайцев Е.О. Анонимный свидетель в уголовном
24. США. М., 1998. С 174-177; Григорьев Ф.Г. Право свидетеля и других участников уголовного